

O‘ZBEK TILINI XORIJIY FUQAROLARGA O‘QITISH METODIKASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14180449>

Saule Erkinovna Imamberdiyeva

Toshkent viloyati Yangiyo‘l shahar

5-sonli umumiy o‘rta ta‘lim maktabining davlat tili fani o‘qituvchisi

Annotatsiya

O‘zbek tilini o‘qitishda xorijiy tillarni o‘qitishdagi muayyan tajribalarni olib kirish ushbu maqolaning maqsadlaridan biri hisoblanib, o‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilining samaradorligini oshirish, dars sifatini yaxshilash uchun qilingan harakatdir. Unda quyidagi vazifalar belgilanadi: a) Ta‘limda milliy va xorijiy tajribani qiyoslash; b) O‘qituvchi va dars sifatini oshirish bilan bog‘liq omillarni tadqiq etish; s) O‘zbek tilini xorijiy fuqarolarga o‘qitishda xorijiy tajribalarni qo‘llash ikoniyatlarini o‘rganish; d) Til ta‘limida psixologik va metodik kompetentsiyalarni tahlil qilish. O‘zbek tili darslik va qo‘llanmalarining salmolg‘i va sifatining oshishi til o‘rguvchining ta‘limini osonlashtiradi, idrokini ravshanlashtiradi. Maqolada ko‘rsatilgan masalalarning qo‘llanganlik darajasi amaliy ahamiyat kasb etadi. Til ta‘limida metodologik yondashuv zaruriy omil ekan, uni nazariy va amaliy jihatdan hayotga tadbiq etish muhim masaladir.

Kalit so‘zlar

xorijiy tajriba, o‘qitish metodikasi, ta‘lim siyosati, Lingvodidaktika, madaniy kompetentsiyalar, ta‘lim tizimi.

KIRISH


Mamlakatimizda ta‘lim siyosatining avj olishi salohiyatli, bilimli va iqtidorli yoshlarni tarbiyalash va jahon sahnasida raqobatbardosh kardlarni tayyorlash bilan bog‘liq. Ta‘limni shunchaki emas, balki sifatli o‘qitishga bo‘lgan e‘tibor hamma zamonda ham diqqat markazida bo‘lgan, ammo bugun jahon miqyosida zamonaviy standartlarga mos kelish masalasi xorijiy tajribaga murojaat qilishga undaydi. Shu ma‘noda, bugun milliy va xorijiy tajribani uyg‘unlashtirgan “Milliy dastur”ni yaratishga bo‘lgan ehtiyoj amaliy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-sonli “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun mamlakatimizdagi mavjud dasturning kuchini yo‘qotdi. Endi jahon hamda mintaqamizdagi tajribalar o‘tilajak darslarimizda o‘z aksini topadi.

ASOSIY QISM

Bugungi ta'limning asosiy talablaridan biri har bir mavzuni har bir o'quvchi va talabalarga innovatsion o'qitish metodlaridan foydalangan holda yetkazib berish va uni amalda qo'llay oladigan kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Shuning uchun ham nafaqat xorijiy tillarni o'qitishda, balki o'z ona tilimiz bo'lgan o'zbek tilini xorijiy fuqarolarga o'rgatishda rivojlangan inovatsion texnologiyalardan foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Buning uchun lingvodidaktikadan unumli foydalanishimiz lozim.

Lingvodidaktika atamasi chet tilini o'qitishni ham, chet tilini o'zlashtirishni ham hisobga oladigan amaliy lingvistik fan hisoblanadi. Lingvodidaktika tillarni o'qitishning umumiy qonuniyatlarini o'rganadi, didaktik maqsadlarga qarab ma'lum bir tilni o'qitish usullari va vositalarini ishlab chiqadi, bir tilli (monolingual) va ikki tilli (bilingual) tillarni egallashga ta'sirini o'rganadi va shu bilan bog'liq bir qator muammolarni hal qiladi. Bundan bir necha yil ilgari, xorijiy tillarni o'qitishda grammatikaga asoslangan holda o'qitilar edi, afsuski, yangi davr, yangicha dunyo qarash o'qitish talablari va uning prinsiplarini ham o'zgartirib yubordi. Bu esa bugungi kunda formallashtirilgan o'zbek tillarni 4 bosqichli til aspektlari: tinglab tushinish, o'qib tushinish, gapirish va yozishga bo'lib o'qitishga yo'l ochib berdi. Shunindek, o'z navbatida "jonli til"ni ham yaralishiga zamin yaratdi.

O'ZBEK TILINI XORIJIY FUQAROLARGA O'QITISH TIZIMI



Xorijiy tilda muloqot qilish malakasini va bu malakaning unsurlari - lingvistik, so'zlashuv, sotsiomadaniy va kognitiv ko'nikmalarni shakllantirish, nafaqat o'zbek tilini, balki har qanday xorijiy til o'rganishning maqsadidir. Bu maqsadga erishish uchun til birliklarini o'rganish, so'zlashuv, tinglash, o'qish,

yo'zish ko'nikmalarini, mintaqaviy, jo'g'rofiy va asosiy madaniy ma'lumotlarni o'zlashtirish, asosiy muloqot va shaxsiy ko'nikmalarga ega bo'lishi uchun kerakli bo'lgan ma'lumot va ta'lim muhitining yaratilishini taqozo etadi.

Matn o'zbek tilini o'qitilishining bosh birligi sifatida diqqat markazida tutilishi, internetning qo'llanilishi, ijtimoiy sahifalar va boshqa axborot texnologiyasi vositalari, programmalarning samarali tatbig'i talablarning xorijiy tilni o'rganishga motivatsiyasini, ya'ni rag'batini orttirishga ko'mak beradi. Masalan, dunyodagi eng so'nggi voqealar haqidagi xabarlar (sport, madaniyat, siyosat va boshqa sohalarda), til egalarining nutqi (mashhur kishilarning nutqlari, seminarlar, qiziqarli televizion dasturlar, kinolar, videokliplar va boshqalar) darsning mazmunini boyitadi, bu esa boshqa til, ayni vaziyatda o'zbek tilini va o'zbek madaniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishning yanada kuchayishiga sabab bo'ladi.

Internetning boy manbalarini mahorat bilan qo'llash o'zbek tilini o'rgatishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va xorijiy tillarini bu tillar madaniyatlarini qiyoslab o'rgatish ham yuqori samara beradi. Bundan tashqari, internet vositasida O'zbekiston tarixi, madaniyatiga virtual si'hat qilish, o'zbek an'analari va urf-odatlarini tanishtirish xorijiy fuqarolarining o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishining ortishiga sabab bo'ladi. Zero, S.G.Ter-Minasovanning ta'kidlashiga qaraganda, chet tili darsi madaniyatlar chorrahasi, chet tilini taqdim etish hodisasi, madaniyatlararo muloqot amaliyotidir, har bir xorijiy tildagi so'z begona dunyoni va begona bir madaniyatni aks ettiradi. Bugungi kunda tilni qanday o'rgatish va qaysi usullar bilan o'qitish kerak, degan savolga javob izlar ekanmiz, zamonaviy axborot texnologiyalarini ham e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur (Skype, ZOOM, video-konferensiyalar, virtual suhbatlar, forumlar, elektron kutubxonalar, virtual dunyolar va boshqalar).

XULOSA

Bugungi kunda o'zbek tiliga bo'lgan qiziqish ortib borayotganligini hisobga olgan holda uni boshqa millat vakiliga tilimizning go'zal taraflarini ko'rsatish, til ta'limni qulaylashtirish siyosat darajasiga ko'tarilar ekan, buning ustida ishlashni davr taqozo qilmoqda. Bunda o'qituvchining roli, til o'rganuvchi yoki o'zga tilli talabaniing roli haqidagi muayyan nazariy va amaliy bilimlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, dars shakli, o'qitish uslubi mental va madaniy kompetentsiyalarga yo'g'rilgan bo'lishi kerak. Shu ma'noda har qanday tajriba belgilangan maqsadni osonlashtiradi. Til o'rganish boshqa ta'limga nisbatan ommaviy va zamonaviy hisoblangani uchun, bunda xorijiy tajriba muhim rol o'ynashi tabiiy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Kadirova, X. 2022. “O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda pedagogikaning muhim jihatlari”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya 1(5): 54-68.
2. Ne‘matov H. So‘z, uning til va nutqdagi o‘rni // O‘zbek tili va adabiyoti, 1988, 6-son. – B. 38-43.
3. Ne‘matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995. – 128 b.
4. https://www.researchgate.net/publication/351951641_O'ZBEK_TILINI_XO_RIJIY_MAMLAKATLARDA_O'QITISH_TEXNOLOGIYASI_VAINTELLEKTUAL_TIZIMLARI